

**SHAROF RASHIDOV RAHBARLIGI DAVRIDA O‘ZBEKISTON SSR DAGI
KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI TARIXI****G‘o‘chchiyev Zayniddin Gulmurodovich**

Sharof Rashidovich Rashidov 6-noyabrda 1917- yilda tuvallud topgan, sovet partiya va davlat arbobi, o‘zbek yozuvchisi, Sotsialistik Mehnat Qahramoni (1974), O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasi rahbari. 1939-yildan KPSS a‘zosi. Jizzax ped. texnikumini (1935), Samarqand Davlat Universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1941). Samarqand viloyatida mas’ul kotib, muharrir o‘rinbosari va muharrir (1937-41,1943). Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (1941-yil noyabr — 1942). O‘zbekiston KP Samarqand viloyat komiteti kotibi (1944-47), „Qizil O‘zbekiston“ gazeta muharriri (1947- 49), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi (1949-50). O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi (1950-59). O‘zbekiston KP MK 1kotibi (1959-83). KPSS MK Siyosiy byurosi (Prezidiumi) a‘zolidigiga nomzod (1961-83). 2 marta Mehnat Qahramoni (1974, 1977) bo‘lgan.

Rashidov adabiyotga shoir sifatida kirib keldi va birinchi yirik asari — „Chegarachi“ dostoni 1937-yilda nashr qilindi. Fashizmga qarshi kurash tuyg‘ulari bilan sugorilgan „Qaxrim“ she‘rlar to‘plami 1945-yilda chop etildi. Rashidov davrning muhim hisoblangan muammolaridan biri — qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzuida „G‘oliblar“ qissasini (1953) yozdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orqasida qahramonona mehnat qilgan xalq hayotiga bag‘ishlangan „Bo‘rondan kuchli“ (1958) va „Qudratli to‘lqin“ (1964), „G‘oliblar“ (1972) romanlarini yaratdi. Rashidov xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan voqealarni davlat va partiya arbobi sifatida mushohada etib, adabiyotning badiiylik mezonlaridan ko‘ra g‘oyaviylik tamoyiliga ko‘proq e‘tibor berdi. Hind xalq afsonasi asosida yozilgan „Kashmir qo‘shig‘i“ lirik qissasi (1956) Rashidov ijodida alohida o‘rinni egallaydi.

Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Rashidov tavalludining 75 yilligi nishonlandi. Rashidov Toshkentdagi Xalqlar Do‘stligi saroyi me‘moriy majmuasi uchun qurilish g‘oyasining muallifi va ijodiy rahbari sifatida vafotidan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan (1994). Sirdaryo viloyatidagi tuman, Toshkent va Jizzax shahridagi ko‘chalar, maktablar, mahallalarga uning nomi berilgan. Jizzaxda Rashidov haykali va muzeyi bor. „Chig‘atoy“ qabristoniga dafn etilgan.

1949—1950-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi. 1950-1959-yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi va SSSP Oliy Sovet Prezidiumi raisi o‘rinbosari bo‘lgan. 1959-yil mart oyidan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi. U 1937—1938-yillardagi O‘zbekiston ziyolilari vakillarining (begunoh mahkumlarni) reabilitatsiya qilish tashabbusi bilan chiqqan. KPSS XIX-XXIV syezdlari delegati; 1956-yildan MK a‘zolidigiga nomzod, 1961-yildan KPSS MK a‘zosi. Sharof Rashidov 1960-yillardan boshlab xalqaro siyosat maydonida chiqishlar qila boshladi. 1962-yilda Kuba inqirozi paytida u Fidel Kastro bilan muzokaralarda sovet

delegatsiyasiga rahbarlik qildi. 1961-yildan MK Prezidiumi a'ziligiga nomzod, 1966-yil apreldan Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi MK Siyosiy burosi a'ziligiga nomzod, 1966-yil apreldan KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosi a'ziligiga nomzod, III-X chaqiriq SSSR Oliy Soveti deputati, 1970-yildan SSSR Oliy Soveti Prezidiumi a'zosi bo'lgan. 1966-yilda Toshkentda A.Kosigin vositachiligida Hindiston Bosh vaziri L.Shastri va Pokiston Prezidenti Muhammad Ayubxon o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Bu muzokaralarni tayyorlashda Sharof Rashidov ham ishtirok etgan.

Ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni (1974), (1977). Lenin mukofoti laureati. 6 marta Lenin ordeni bilan, 4 marta boshqa ordenlar bilan, shuningdek medallar bilan taqdirlangan.

Rashidov davrida 1966-yildan boshlab O'zbekiston poytaxti Toshkent qayta qurildi. Yangi muzeylar, bog'lar, teatrlar, yodgorliklar barpo etildi. 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlandi, shu munosabat bilan Samarqandda yirik tadbirlar o'tkazildi, shahar tarixi muzeyi, opera va balet teatri ochildi. 1977-yilda O'rta Osiyoda birinchi marta Toshkentda metro ochildi.

1969-yilda Samarqandda temuriylar davri san'ati tarixiga bag'ishlangan xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. 1973-yilda mashhur olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi keng nishonlandi, badiiy film suratga olindi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sharof Rashidovning respublikani boshqargan davri O'zbekiston SSR-da kadrlarni tayyorlash jarayoni juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va davlatning ularni o'zlashtirish, rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan. Bu davrda O'zbekistonning ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarini olish va ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirishga katta e'tibor qaratilgan.

Sharof Rashidov davrida oliy ta'lim muassasalarining soni kengaytirilgan va ularda o'qituvchilar va ilmiy kadrlar tayyorlanib, mustahkamlangan. Bu jarayonda yangi texnologiyalar va soha bo'yicha kadrlar tayyorlashning zaruriyatiga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda Sharof Rashidov rahbarligidagi ilmiy-tadqiqot institutlari soni 1960-yildagi 64 tadan 1980-yillarning boshlarida 100 taga yetdi. Sharof Rashidov tashabbusi bilan O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Arxeologiya instituti tashkil etilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. „Шараф рашидович рашидов - птица хумо будущего“. www.proza.ru. Qaraldi: 28-noyabr 2023-yil.
3. „Одностороннее Развитие Экономики Узбекистана в 1950-1990 годах | Vek-Noviy.Ru“. vek-noviy.ru. 2021-yil 5-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 5-noyabr.
4. „Подземное чудо Ташкента: 40 лет без остановок“. 2019-yil 29-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2019-yil 29-avgust.
5. <http://uchildiz.uz/akademik-sayyora-rashidova-o'zmu-faxri/>[sayt ishlamaydi]

-
6. AQShda Svetlana Rashidova — Sharof Rashidovning qizi vafot etdi
 7. <https://daryo.uz/2016/12/23/jizzax-tumani-sharof-rashidov-nomi-bilan-ataladi/>
 8. <http://oz.sputniknews-uz.com/society/20170328/5068046/Sharof-Rashidov-Tavalludining-100yilligi.html>
 9. Sharof Rashidov haykali ochildi